

O'qish savodxonligi fani bo'yicha dars ishlanmalar

4-sinf 1-chorak

1-Mavzu: Yagonadir Vatanning sening! (Xurshid Davron)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: o'quvchilarni matn mazmuni bilan tanishtirish, Vatan haqida kengroq tushuncha berish, Vatan tuyg'usi tushunchasini singdirish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarga Vatanni sevishni va qadrlashni, tabiiy boyliklarini asrab-avaylashni o'rgatish, yosh avlodni Vatanga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash.

c) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini, lug'at ustida ishlash, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars metodi: tushuntirish, suhbat, "Klaster" metodi, ta'limiy o'yinlar.

Dars jihozi: rangli ko'rgazmalar, tarqatma materiallar, videolavha.

Darsning borishi:


I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- davomatni aniqlash;
- o'quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

II. Yangi mavzu bayoni.

O'qituvchi o'quvchilarga savol bilan murojaat qiladi:



Siz Vatan deganda
nimani tushunasiz?

O'quvchilar Vatan so'ziga ta'rif beradilar. "Klaster" metodidan foydalaniladi.

"Klaster" metodi.



Darslik bilan ishlash. "Yagonadir Vataning sening!" matni o'quvchilarga o'qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi. Muallif haqida ma'lumot beriladi.

XURSHID DAVRON

Xurshid Davron – Iste'dodli, qalami o'tkir shoir, dramaturg, tarixchi, yozuvchi va tarjimon "Uchib boraman qushlar bilan", "Qadrdon quyosh", "Shahardagi olma daraxti", "To'marisning ko'zlari", "Bahordan bir kun oldin", "Qaqnus", "Bolalikning ovozi" kabi she'riy to'plamlar muallifi. She'rlarida voqelikka yangicha nigoh bilan qarovchi, o'zgarishlarni sinchkovlik bilan kuzatuvchi zukko shoir sifatida gavdalanadi.

Lugʻat ishi:

Boʻy choʻzmoq – oʻsmoq

Yoqa ushlamoq – hayratlanmoq

Qurgʻoqchilik – suvsizlik

Mukarram – qadrli

“Zanjir” usuli.

Matn oʻquvchilarga zanjir usulida oʻqitiladi.

Dam olish daqiqasi oʻtkaziladi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash.

“Kim hozirjavob” oʻyini.

Savollarga javob beriladi.

1. “Vatan” soʻziga taʼrif bering.
2. “Istiqlol” soʻzi oʻzida nimalarni mujassam qiladi?
3. Qadrlash deganda nimani tushunasiz?
4. Jahon davlatlari oʻrtasidagi aloqa deganda nimani tushunasiz?
5. Amerikada nima uchun daraxtlar qurib qoldi?
6. Oʻzbekiston Respublikasi istiqbolga erishganini qaysi davlatlar tan olgan?

“Maqollar zanjiri” oʻyini.


- Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni.
- Vatan gadosi – kafan gadosi.
- Vatanning tinch – sen tinch.
- Oʻz uyim – oʻlan toʻshagim.
- Vatan taqdiri har bir kishining taqdiridir.
- Vatanparvarlik – bobolardan qolgan meros.
- Ona yurt – oltin beshik.
- Oʻz diyorini gullatganning baxti gullaydi.
- Har bir nihol oʻziga xos tuproqda ildiz otadi.
- Vatan uchun qurbon boʻlganlarning xoki muqaddasdir.

- O'z uyim – o'lan to'shagim.

Maqollarning mazmuni tushuntiriladi.

Mashq daftar bilan ishlash.

1-topshiriq. Siz Vatan deganda nimani tushunasiz? Vatan so'ziga ta'rif bering.



O'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar va yozadilar.

2-topshiriq. Berilgan gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang. To'g'ri gaplarning yoniga ☒ , noto'g'risining yoniga ☐ belgisini qo'ying.

☒ Vatan ona tuproqdan boshlanadi.

☐ Qushlar o'z yurtini sog'inmaydi.

☒ Aytishlaricha, Amerikada ming yilcha umr ko'radigan daraxt bor ekan.

☒ Fransuzlar uni havas bilan o'z yurtlariga olib kelib ekishibdi.

☐ Yillar o'tsa ham, bog' o'rmonga aylanmabdi.

☐ Olimlar falokat sabablarini izlamabdilar.

☒ Sababini aniqlashgach, hayratdan yoqa ushlabdi.

3-topshiriq. Vatan haqida uchta maqol yozing. Maqollarning ma'nosini izohlang.

1. Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas.

2. Vatani borning baxti bor, mehnati borning – taxti.

3. O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l.

4-topshiriq. “Muqaddas Vatanim!” mavzusida kichik matn yozing.

O‘quvchilar mustaqil ravishda bajaradilar.

5-topshiriq. 1-ustundagi so‘zlarni 2-ustundagi ma‘nodosh so‘zi bilan bog‘lang.

quyosh	sog‘inadi
nihol	uzoq
qo‘msaydi	oftob
olis	bitta
yagona	ko‘cha

IV. Darsni yakunlash va o‘quvchilarni baholash.

- Siz kelajakda o‘z Vataningiz ravnaqi uchun qanday hissa qo‘shmoqchisiz?

O‘quvchilar baholab, rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

“Yangi O‘zbekiston – yangi maqsad sari rivojlanish” mavzusida reja tuzib, so‘zlashga tayyorlaning.